

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA TURIZMGA OID TERMINLAR TADQIQI

Xasanova Shirin Shokir qizi

Magistr, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

hasanova.211@yandex.com

Djurayev Dilshod Mamadiyorovich

O'zDJTU Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy va o'zbek tillarida turizmga oid terminlar qiyosiy-lingvistik, semantik va leksik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki tildagi turizm terminologiyasining shakllanish manbalari, leksik-semantik xususiyatlari hamda terminlarning ma'no tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada turizm terminlarining umumxalq leksikasi asosida ixtisoslashuvi, so'z yasaliş jarayonlari, xalqaro terminlar va o'zlashmalar, shuningdek, kalka usuli orqali hosil bo'lishi misollar asosida yoritiladi.

Abstract. This article examines tourism-related terminology in Chinese and Uzbek from comparative-linguistic, semantic, and lexical perspectives. The main aim of the study is to identify the sources of formation of tourism terminology in both languages, their lexical-semantic features, as well as the similarities and differences in their semantic systems. The article analyzes, with examples, the specialization of tourism terms based on common vocabulary, word-formation processes, international terms and borrowings, as well as the formation of terms through calquing.

Kalit so'zlar: turizm terminologiyasi, xitoy tili, o'zbek tili, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, leksik tahlil, so'z yasaliş, terminologiya.

Keywords: tourism terminology, Chinese language, Uzbek language, comparative analysis, semantic analysis, lexical analysis, word formation, terminology.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, xalqlar o'rtasidagi madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning kengayishi turizm sohasining jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki mamlakatlar o'rtasidagi madaniy almashinuv, o'zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan turizm sohasida qo'llaniladigan terminlarning lingvistik jihatdan to'g'ri va aniq tadqiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoy tili turizm terminologiyasini o'rganib chiqishdan oldin avvalambor ularning yasaliş usullarini o'rganib chiqishni lozim deb bilamiz.

O.P. Frolova xitoy tilida termin yasalişining uchta asosiy usuli borligini ta'kidlaydi:

1. Terminlashtirish (umumiste'moldagi so'zning maxsus ma'noda qo'llash uchun qabul qilish. Masalan umum iste'molda bo'lgan 路 lù yo'l so'zi, turizm terminologiyasida 路线 lùxiàn turistik marshut ma'nosini ifodalaydi.

2. Qo'shish, affiksatsiya, qisqartirish, shuningdek turg'un birikmalrini shakllantirish orqali murakkab terminlarni hosil qilish, Masalan, 景区舒适性 jǐngqū shūshì xìng – sayyohlik hududining qulayligi, 名胜古迹 (míngshèng gǔjì), 文化遗产 (wénhuà yíchǎn) — madaniy meros.

3. Boshqa tildan so'z o'zlashtirish orqali, masalan, fonetik o'zlashuv 巴士 bashe avtobus, 度假村 dùjiàcūn (resort – dam olish maskani).

Turizm termini quyidagi belgilar bilan ajralib turadi: axborot berish va targ'ibot funksiyasining ustunligi; ijobiy baholovchi birliklarning ko'pligi; soddalik va tushunarlilikka intilish; madaniykomponentning kuchlilig Turizm terminlari ko'pincha rasmiy va yarim rasmiy uslubda qo'llanilib, xalqaro kommunikatsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Xitoy tilida turizm bilan bog'liq leksik birliklar qadimdan mavjud bo'lgan. Masalan, 游yó, 行xíng, 观guān, 旅lǚ iyerogliflari qadimgi manbalarda safar, ko'chish va tomosha qilish ma'nolarida ishlatilgan.

Xitoyda iqtisodiy islohotlardan so'ng turizm mustaqil sanoatga aylandi va bu yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi: 旅游产业 lǚyóu chǎnyè (turizm industriyasi), 旅游经济 lǚyóu jīngjì (turizm iqtisodiyoti), 旅游管理 lǚyóu guǎnlǐ (turizm boshqaruvi). Bu terminlar davlat hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanila boshladi.

Xitoy turizm terminologiyasining qadimiy qatlamida xitoy madaniyati, falsafasi va tarixiy dunyoqarashi muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, an'anaviy xitoy tafakkuriga xos bo'lgan tabiat va inson uyg'unligi (天人合一 tiānrén héyī), g'oyasi turizm bilan bog'liq tushunchalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bu asosda yuzaga kelgan turizm terminlari ko'pincha abstrakt, metaforik va ko'p qatlamli semantikaga ega bo'ladi. Masalan: 风景 (fēngjǐng) — manzara, tabiat ko'rinishi; 名胜 (míngshèng) — mashhur diqqatga sazovor joy; 山水 (shānshuǐ) — tog' va suv manzaralari (landshaft turizmi), 胜地 (shèngdì) — muqaddas yoki mashhur turistik maskan. Bu terminlar qadimgi yozma manbalardan kelib chiqqan bo'lib, bugungi zamonaviy turizm jarayonida ham faol qo'llaniladi. Ular nafaqat geografik obyektini, balki madaniy-estetik qadriyatlarni ham ifodalaydi.

Xitoy tilidagi turizm terminologiyasining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ko'pchilik umumiy turizm terminlari baholovchi (emotsional) rangga ega emas. Bunday terminlar obyektiv hodisani neytral tarzda ifodalaydi va subyektiv munosabatni bildirmaydi. Masalan, 旅游 (lǚyóu), 游客 (yóukè), 旅行 (lǚxíng) kabi terminlar faqat sayohat jarayoni, unda ishtirok etuvchi shaxs yoki harakatni bildiradi, ijobiy yoki salbiy baholash komponentini o'z ichiga olmaydi. Bu holat terminologik birliklarning asosiy talabi bo'lgan aniqlik va neytrallik tamoyiliga mos keladi.

Bundan tashqari, xitoy tilidagi umumiy turizm terminlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular semantik jihatdan ochiq va kengayuvchan hisoblanadi. Masalan, 旅游 lǚyóu termini asos bo'lib xizmat qilib, unga turli aniqlovchi komponentlar qo'shilishi orqali yangi terminlar hosil qilinadi: 生态旅游 shēngtài lǚyóu, 文化旅游 Wénhuà lǚyóu, 智慧旅游 zhìhuì lǚyóu, 体验旅游 tǐyàn lǚyóu va boshqalar. Bu jarayon tilshunoslikda semantik differensiallashuv sifatida talqin qilinadi, ya'ni bitta asosiy termin turli aniqlovchi birliklar yordamida ixtisoslashgan ma'nolarga ega bo'ladi.

O'zbek tilida esa turizm terminologiyasi ko'proq tarjima va kalkalash asosida shakllanadi. Bu jarayonda ayrim hollarda terminlarning mazmuni to'liq aks etmasligi yoki tavsifiy ifodalarga murojaat qilinishi kuzatiladi. Shu sababli xitoy va o'zbek tillari o'rtasida terminlarni tarjima qilishda lingvistik bilan bir qatorda madaniy moslikni ham hisobga olish muhimdir.

Turizm tilining eng nozik jihatlaridan biri uning madaniy yuklamasidir. Har bir termin muayyan xalqning tarixiy va madaniy qadriyatlarini bilan bog'liq bo'ladi. Masalan,

xitoy tilidagi 文化遗产地 *wénhuà yíchǎn dì* atamasi o'zbek tilida “madaniy meros obyekti” deb tarjima qilinsa-da, bu tushuncha xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy boyligini o'zida mujassam etadi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar turizm terminologiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xitoy tilida 线上预订 *xiànshàng yùdìng*, 虚拟旅游 *xūnǐ lǚyóu*, 数字旅游 *shùzì lǚyóu* kabi terminlarning paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining turizm sohasiga faol kirib kelganidan dalolat beradi. O'zbek tilida bu atamalar mos ravishda “onlayn bron qilish”, “virtual sayohat”, “raqamli turizm” shaklida qo'llanilmoqda. Shuningdek, 可持续旅游 (barqaror turizm) va 智慧旅游 (aqli turizm) terminlari zamonaviy turizm rivojining asosiy yo'nalishlarini ifodalovchi muhim tushunchalar sifatida qaralmoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari xitoy va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonida muhim o'xshashliklar bilan birga sezilarli farqlar ham mavjud ekanligini ko'rsatdi. Xitoy tilida turizm terminlari asosan tilning ichki imkoniyatlari — terminlashtirish, qo'shma so'zlar hosil qilish va semantik kengayish orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga, bu terminlar qadimiy madaniy-falsafiy qarashlar, tarixiy tajriba va estetik qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning mazmunida chuqur madaniy qatlam aks etadi.

O'zbek tilida esa turizm terminologiyasi ko'proq tarjima, kalkalash va o'zlashmalar asosida shakllanadi. Bu holat ayrim terminlarning mazmun jihatdan to'liq ifodalanmasligi yoki tavsifiy shaklda berilishiga olib keladi. Shuning uchun o'zbek tilida turizm terminlarini shakllantirishda milliy til resurslaridan samarali foydalanish, ularni tizimlashtirish va standartlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, xitoy tilidagi turizm terminlari ko'proq qisqa, aniq va semantik jihatdan kengayuvchan bo'lsa, o'zbek tilidagi terminlar ko'pincha murakkab va izohlovchi xususiyatga ega. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida har ikki tilda yangi turizm terminlari shakllanib bormoqda, biroq xitoy tilida bu jarayon nisbatan tez va tizimli kechmoqda.

Umuman olganda, turizm terminologiyasini qiyosiy o'rganish lingvistik tahlil bilan bir qatorda madaniy omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Ushbu tadqiqot natijalari turizm sohasida tarjima sifatini oshirish, terminologik bazani boyitish hamda xalqaro kommunikatsiyani yanada samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Фролова О. П. Китайский язык: словообразование и терминология. — Москва: Восточная литература, 2005.
2. Солнцев В. М. Введение в теорию китайского языка. — Москва: Наука, 1995.
3. Лю Шусян (刘叔新). 现代汉语词汇学. — 北京: 商务印书馆, 2010.
4. 王宁 (Wang Ning). 旅游: 从文化活动到全球化产业 [J]. 《杭州师范大学学报(社会科学版)》, 2010年第5期. 王力. 汉语史稿. — 北京: 中华书局, 2004.
5. 张斌. 现代汉语词缀研究. — 上海: 复旦大学出版社, 2008.
6. Qodirov A. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari. — Toshkent: Fan, 2012.
7. Yo'ldoshev B. Zamonaviy o'zbek terminologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2018.

8. Superanskaya, A. V. Umumiy terminologiya: nazariya masalalari. – Moskva: Nauka, 2012.